

TIJORAT BANKLARI KREDIT QO'YILMALARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI OPTIMALLASHTIRISH: O'ZBEKISTON BANK TIZIMI MISOLIDA

Ko'chqarov Fayzullo Abdujabborovich

Namangan davlat universiteti, Moliyaviy munosabatlar kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston tijorat banklarida kredit qo'yilmalarini moliyalashtirish manbalarining tarkibi, ularning kredit portfeli barqarorligi va daromadlilikiga ta'siri ilmiy-nazariy hamda statistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy muammosi bank kreditlashining jadal kengayishi sharoitida kredit resurslari bazasining yetarli darajada diversifikatsiyalanmagani, depozitlar ulushining nisbatan pastligi va tashqi hamda markazlashgan mablag'larga qaramlikning saqlanib qolishi bilan belgilanadi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va rasmiy statistika ma'lumotlariga tayangan holda dinamik, tarkibiy, qiyosiy va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kredit qo'yilmalari, kredit portfeli, depozit bazasi, bank majburiyatlari, tashqi qarz, dollarlashuv, foiz stavkasi, kredit resurslari, moliyaviy barqarorlik.

KIRISH

Global moliya bozorlarida noaniqlikning kuchayishi, foiz stavkalari siklining tez-tez o'zgarib turishi, inflyatsion bosimning saqlanib qolishi hamda likvidlik xatarlarining ortishi zamonaviy bank sektorining faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda tijorat banklarining real iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror kreditlash imkoniyatlari ko'p jihatdan ularning moliyaviy resurslarni shakllantirish va samarali boshqarish salohiyatiga bog'liq bo'ladi. Bank kreditlari korxonalarining aylanma mablag'larini to'ldirish, ishlab chiqarishni kengaytirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, uy xo'jaliklarining iste'mol va investitsion ehtiyojlarini qondirishda muhim moliyaviy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Shu sababli bank kredit qo'yilmalarining faqat miqdoriy jihatdan o'sishi emas, balki ularni moliyalashtiruvchi resurslarning sifati, barqarorligi, muddati, qiymati va valyuta tarkibi ham bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Kredit portfelining uzoq muddatli va barqaror o'sishi uchun bank majburiyatlari tarkibida nisbatan arzon, uzoq muddatli va barqaror moliyalashtirish manbalarining ulushi yetarli bo'lishi talab etiladi. Aks holda, qisqa muddatli yoki yuqori qiymatli resurslar hisobidan uzoq muddatli kreditlarni moliyalashtirish aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi muddat nomutanosibligini kuchaytirishi mumkin.

2023-yilda xalqaro bank sektorida kuzatilgan beqarorlik holatlari, jumladan, AQShdagi ayrim banklarning faoliyatini to'xtatishi hamda Credit Suisse bankining UBS tomonidan qo'shib olinishi bank aktivlari va majburiyatlari muddatlari o'rtasidagi nomutanosiblik, depozit bazasining barqarorligi, foiz risklari va likvidlikni boshqarish masalalari naqadar dolzarb ekanini yana bir bor ko'rsatdi [1]. Mazkur holatlar bank aktivlarining rentabelligi yuqori bo'lishining o'zi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun yetarli emasligini, bankning resurs bazasi tarkibi va uning sifat ko'rsatkichlari ham muhim rol o'ynashini tasdiqladi. Shu jihatdan, kredit siyosatini bankning moliyalashtirish manbalari va majburiyatlari tarkibidan ajratilgan holda baholash to'liq iqtisodiy xulosalar chiqarish imkonini bermaydi.

O'zbekiston bank tizimida ham so'nggi yillarda kreditlash hajmlarining kengayishi tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish va diversifikatsiya qilish siyosatiga nisbatan yuqori talablarni yuzaga keltirmoqda. Banklarning iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlash imkoniyatlari ko'p jihatdan aholi va korxonalar depozitlari, banklararo resurslar, xalqaro moliya institutlari mablag'lari, tashqi qarzlar hamda boshqa moliyalashtirish manbalarining hajmi va tarkibiga bog'liq. Shu bilan birga, mazkur resurslarning qiymati va muddat tuzilmasi kreditlar bo'yicha foiz stavkalari, sof foiz marjasi va bankning umumiy rentabelligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kredit portfelining sifati va rentabelligi bank majburiyatlari tarkibi, depozit bazasining barqarorligi, jalb qilingan tashqi qarzlarining qiymati, valyuta tarkibi hamda resurslarning muddat tuzilmasi bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, qisqa muddatli depozitlar hisobidan uzoq muddatli kreditlashning yuqori sur'atlarda kengayishi bank likvidligiga bosimni oshirishi mumkin. Shuningdek, xorijiy valyutadagi resurslarning yuqori ulushi valyuta kursi o'zgarishlari sharoitida qo'shimcha xatarlarni shakllantiradi va bankning ochiq valyuta pozitsiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Kreditlarni moliyalashtirish manbalari yetarli darajada diversifikatsiyalanmagan taqdirda, bankning likvidligi, foiz marjasi, valyuta pozitsiyasi, kapital yetarliligi va umumiy moliyaviy barqarorligiga bosim kuchayishi mumkin. Shu sababli kredit qo'yilmalari va ularni moliyalashtiruvchi resurslar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tizimli ravishda tahlil qilish, resurs bazasining tarkibiy xususiyatlarini baholash hamda kreditlash hajmiga ta'sir etuvchi asosiy moliyaviy omillarni aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur masalalarni chuqur o'rganish tijorat banklarida kredit siyosati va resurslarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, moliyalashtirish manbalarini maqbul diversifikatsiya qilish, likvidlik va foiz risklarini kamaytirish hamda banklarning real iqtisodiyotni uzoq muddatli va barqaror kreditlash salohiyatini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bank kredit portfelini shakllantirish kredit siyosatining strategik maqsadlari, riskka moyillik darajasi va resurs bazasining imkoniyatlari bilan belgilanadi. Mahalliy tadqiqotlarda kredit portfelini optimallashtirish bankning kreditlash limitlari, tarmoq va mijozlar bo'yicha diversifikatsiyasi, muddati o'tgan qarzdorlikni nazorat qilish hamda resurslarni samarali joylashtirish bilan bog'liq holda talqin qilinadi [4; 5; 7].

Biroq kredit portfelining optimal tarkibini ta'minlash uchun aktivlar tuzilmasi bilan bir qatorda ularni moliyalashtiruvchi majburiyatlarning tarkibiy va muddat xususiyatlarini ham hisobga olish zarur.

Mohammad J. M. bank kredit portfelini optimallashtirish masalasini portfel yondashuvi doirasida ko'rib, kreditlarning risk va daromadlilik nisbatini resurs cheklovlari bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi [6]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, bankning kreditlash salohiyati faqat kapital hajmi bilan emas, balki nisbatan arzon, barqaror va prognoz qilinadigan majburiyatlar bazasining mavjudligi bilan ham belgilanadi.

Kreditlar bo'yicha foiz stavkasining iqtisodiy mazmuni resurs narxi, kredit riskiga mukofot, operatsion xarajatlar, kutilayotgan inflyatsiya va bankning maqsadli marjasini o'zida mujassamlashtiradi. Shu sababli depozitlar bo'yicha foiz stavkalari hamda pul bozoridagi resurslar qiymatining o'zgarishi kredit narxiga bevosita uzatiladi. Resurs bazasida qisqa muddatli yoki qimmat mablag'lar ulushining ortishi kredit stavkalari va qayta moliyalashtirish xatarini oshiradi.

Shuningdek, kreditlar va ularni moliyalashtirish manbalari valyuta tarkibining mosligi bank barqarorligining muhim shartidir. Xorijiy valyutadagi kreditlar ulushining yuqori bo'lishi, ayniqsa qarz oluvchining daromadi milliy valyutada shakllansa, kredit va valyuta risklarining o'zaro kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, kredit qo'yilmalarining dollarlashuv darajasi resurs bazasining tashqi moliyalashtirishga qanchalik bog'liqligini aks ettiruvchi muhim indikator sifatida qaraladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bank kredit qo'yilmalarining barqaror o'sishi uchta asosiy shartga tayanadi: birinchidan, depozit bazasining yetarli hajmi va barqarorligi; ikkinchidan, resurslarning muddat va valyuta tarkibi bo'yicha aktivlarga muvofiqligi; uchinchidan, tashqi va markazlashgan manbalarga qaramlikning maqbul darajada cheklanishi. Ushbu tamoyillar keyingi empirik tahlilning konseptual asosini tashkil etadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot deskriptiv-analitik dizayn asosida amalga oshirildi. Empirik bazani asosan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy barqarorlik sharhlari, pul-kredit siyosati bo'yicha asosiy yo'nalishlari, statistik byulletenlari hamda rasmiy statistik ma'lumotlar tashkil etadi [1–3]. Tahlil 2018–2023-yillar oralig'idagi mavjud ko'rsatkichlarni qamrab oladi; bank majburiyatlarining tarkibiy jadvali bo'yicha esa 2018–2022-yillar ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Tadqiqotda dinamik tahlil kredit qo'yilmalari va resurslar hajmining vaqt bo'yicha o'zgarishini aniqlash uchun; tarkibiy tahlil bank majburiyatlari tarkibida depozitlar, olingan kreditlar va lizinglar hamda rezident va norezident banklar mablag'larining ulushini baholash uchun; qiyosiy tahlil esa yillar kesimida strukturaviy siljishlarni aniqlash uchun qo'llanildi. Shuningdek, mantiqiy umumlashtirish va sabab-oqibat tahlili yordamida resurs bazasi tarkibidagi o'zgarishlarning kredit portfeli barqarorligi bilan bog'liqligi izohlandi.

Tadqiqotning metodologik cheklovi shundan iboratki, foydalanilgan

ma'lumotlar agregat bank tizimi darajasida shakllangan. Shu sababli natijalar alohida banklar kesimidagi individual biznes-model, risk profili yoki mijozlar tarkibidagi farqlarni to'liq aks ettirmaydi. Biroq agregat ko'rsatkichlar bank tizimidagi kredit resurslarini shakllantirishning umumiy tendensiyalarini aniqlash va tizimli xatarlarni baholash uchun yetarli axborot bazasini yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda iqtisodiyotga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari o'tgan yilga nisbatan 21,6 foizga oshib, 2024-yil 1-yanvar holatiga 452,1 trln so'mga yetgan. Kreditlarning yalpi ichki mahsulotga nisbati 45,9 foizni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkichlar bank kreditining iqtisodiy faollikni moliyalashtirishdagi rolini namoyon etishi bilan birga, kredit portfeli o'sishining qanday resurslar hisobidan ta'minlanayotgani masalasini ham dolzarb qiladi.

Xorijiy valyutadagi kreditlarni qayta baholash ta'siri chiqarib tashlanganda kreditlarning real o'sishi 24,9 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, jami kredit portfelida xorijiy valyutadagi kreditlar ulushi 2017-yildagi 62,3 foizdan 2022-yilda 48,1 foizgacha kamaygan. Bu 14,2 foiz punktik pasayish bo'lib, kredit portfelining valyuta tarkibida muayyan de-dollarizatsiya jarayoni yuz berganini ko'rsatadi. Biroq qariyb yarmi xorijiy valyutada shakllangan kredit portfeli hali ham valyuta xatarlarining sezilarli manbai bo'lib qolmoqda.

Xorijiy valyutadagi kreditlarga talabning nisbatan yuqori bo'lishi, yirik korporativ qarz oluvchilarning import va investitsiya ehtiyojlari, shuningdek, banklarning tashqi moliyalashtirish resurslaridan foydalanishi dollarlashuvning saqlanib qolishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Xedjirlash vositalarining yetarli rivojlanmagani sharoitida bunday struktura valyuta kursi o'zgarishlarining qarz oluvchilar to'lov qobiliyatiga bilvosita ta'sirini kuchaytirishi mumkin.

2017–2022-yillarda kreditlar qoldig'ining yillik o'sishi o'rtacha 43 foizni tashkil etgani qayd etilgan. Bunda milliy valyuta almashuv kursi ta'sirida xorijiy valyutadagi kreditlarning qayta baholanishi va 2019-yilda O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratilgan qariyb 4,4 mlrd AQSh dollari ekvivalentidagi kreditlarning jamg'arma balansiga qaytarilishi muhim statistik ta'sir ko'rsatgan. Ushbu omillar chiqarib tashlanganda kredit qo'yilmalarining yillik o'sishi taxminan 34 foiz atrofida shakllangan [2]. Bu kreditlashning asosiy trendi yuqori sur'atlarda saqlanganini ko'rsatadi.

Kredit qo'yilmalarining o'sish sur'atlari yuqori bo'lishiga qaramasdan, moliyaviy qamrov va ichki jamg'armalarni bank tizimiga jalb etish darajasi kredit ekspansiyasiga mos ravishda kengayishi zarur. Manba ma'lumotlarida depozitlarning YaIMga nisbati so'nggi yetti yil davomida o'rtacha 20 foiz atrofida shakllangani, tegishli davrda 23 foizdan 19,7 foizgacha pasaygani qayd etiladi [3]. Bu holat kredit qo'yilmalarining tabiiy va nisbatan barqaror manbasi hisoblangan depozit bazasining kredit o'sishidan ortda qolishi ehtimolini ko'rsatadi.

Depozitlarning yetarli darajada o'smasligi banklarning muqobil manbalarga, xususan, tashqi qarz, boshqa moliya institutlari mablag'lari va markazlashgan

resurslarga murojaat qilishini kuchaytiradi. Bunday resurslar kreditlashni qisqa va o'rta muddatda qo'llab-quvvatlashi mumkin, biroq ularning qiymati, qayta moliyalashtirish shartlari va valyuta tarkibi bank uchun qo'shimcha xatarlar keltirib chiqaradi. Shu sababli kredit portfeli o'sishining sifati depozit bazasining muddatli va jamg'arma komponentlarini kengaytirish bilan uyg'unlashtirilishi lozim.

Aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning muddatli depozitlarini ko'paytirish bankka resurslarning o'rtacha muddatini uzaytirish, likvidlikni rejalashtirish va kreditlar narxini barqarorroq shakllantirish imkonini beradi. Bunda depozit mahsulotlari bo'yicha raqobatni faqat foiz stavkasi orqali emas, balki xizmat sifati, raqamli qulaylik, ishonchlilik va mijoz segmentlari bo'yicha moslashtirilgan mahsulotlar orqali kuchaytirish muhim.

Bank kredit qo'yilmalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini baholashda majburiyatlar tarkibining dinamikasi muhim ahamiyatga ega. Quyidagi jadvalda 2018–2022-yillarda depozitlar, olingan kreditlar va lizinglar, shuningdek, rezident va norezident banklar mablag'larining hajmi hamda bank majburiyatlaridagi ulushi keltirilgan.

1-jadval.

Tijorat banklari majburiyatlarining tarkibiy tuzilishi (mlrd so'm; ulushi, foizda)

Yil	Depozitlar Summa	Depozitlar %	Olingan kreditlar va lizinglar Summa	Olingan kreditlar va lizinglar %	Rezident banklar mablag'i Summa	Rezident banklar mablag'i %	Norezident banklar mablag'i Summa	Norezident banklar mablag'i %
2018	70 001,4	37,3	104 378,8	55,6	6 390,7	3,4	511,6	0,3
2019	91 009,0	41,1	105 252,2	47,5	9 869,4	4,5	922,3	0,4
2020	114 746,9	37,3	151 704,0	49,3	13 001,4	4,2	3 175,4	1,0
2021	156 189,8	41,8	173 750,3	46,5	13 288,6	3,6	4 670,8	1,2
2022	216 737,5	45,4	186 614,5	39,1	18 780,8	3,9	22 798,5	4,8

Jadval ma'lumotlari bank majburiyatlari tarkibida sezilarli strukturaviy siljishlar yuz berganini ko'rsatadi. Depozitlar hajmi 2018-yildagi 70 001,4 mlrd so'mdan 2022-yilda 216 737,5 mlrd so'mga yetib, qariyb 3,1 baravar oshgan. Ularning majburiyatlardagi ulushi 37,3 foizdan 45,4 foizgacha, ya'ni 8,1 foiz punktga ko'paygan. Mazkur tendensiya banklarning ichki resurs bazasi mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, olingan kreditlar va lizinglar hajmi ham 104 378,8 mlrd so'mdan 186 614,5 mlrd so'mga oshgan bo'lsa-da, ularning ulushi 55,6 foizdan 39,1 foizgacha, ya'ni 16,5 foiz punktga kamaygan. Bu tarkibiy jihatdan ijobiy siljish bo'lib, majburiyatlarning kredit va lizing manbalariga nisbatan qaramligi pasayganini anglatadi. Biroq mazkur komponent 2022-yilda ham yuqori ulushni saqlab qolganligi resurs bazasini diversifikatsiyalash vazifasi to'liq hal etilmaganini ko'rsatadi.

Norezident banklar mablag'lari 2018-yildagi 511,6 mlrd so'mdan 2022-yilda 22 798,5 mlrd so'mga keskin oshgan va ularning ulushi 0,3 foizdan 4,8 foizgacha ko'tarilgan. Mutlaq hajm bo'yicha bu qariyb 44,6 baravarlik o'sishni anglatadi. Ushbu tendensiya banklarning xalqaro resurslardan foydalanish imkoniyatlari kengayganini ko'rsatishi mumkin, biroq bir vaqtning o'zida tashqi moliyalashtirish narxi, valyuta kursi va qayta moliyalashtirish shartlariga sezgirlikning ortishiga olib keladi.

Rezident banklar mablag'larining ulushi 2018-yildagi 3,4 foizdan 2022-yilda 3,9 foizga oshgan bo'lsa-da, ularning roli nisbatan barqaror qolgan. Umuman, majburiyatlar tarkibidagi o'zgarishlar depozitlar ulushining oshishi bilan birga tashqi resurslarning ham tez sur'atlarda kengayganini ko'rsatadi. Demak, banklar uchun asosiy vazifa depozitlar o'sishini kredit portfeli o'sishiga yaqinlashtirish va tashqi qarzlarning valyuta hamda muddat xatarlarini boshqarishdan iborat.

Kredit qo'yilmalari samaradorligi ularning nominal hajmidan tashqari, resurslar qiymati va kredit narxining shakllanish mexanizmiga ham bog'liq. Kredit bo'yicha foiz stavkasi, odatda, jalb qilingan mablag'larning bazaviy qiymati, kredit riskiga mukofot, operatsion xarajatlar, inflyatsion kutilmalar va bank marjasidan tarkib topadi. Shu sababli depozit foiz stavkalarining o'sishi yoki pul bozorida resurslar qimmatlashuvi kredit narxiga uzatiladi.

Manba ma'lumotlarida 2022-yil oxiriga kelib milliy valyutadagi kreditlar bo'yicha foiz stavkalari yil davomida kuzatilgan 20–22 foizlik koridor doirasida muvozanatlashgani qayd etilgan. Bu kredit narxining nisbatan barqarorlashganini anglatadi, biroq banklar resurs bazasida qimmat tashqi yoki qisqa muddatli mablag'lar ulushining ortishi foiz marjasini qisqartirishi mumkin. Shu bois resurslarni optimallashtirish nafaqat likvidlikni, balki kredit operatsiyalarining rentabelligini ta'minlash vositasi sifatida ham ko'rilishi kerak.

Aktiv va passivlar muddatlarining mosligi ayniqsa uzoq muddatli kreditlashda muhimdir. Qisqa muddatli majburiyatlar hisobidan uzoq muddatli kreditlarni moliyalashtirish qayta moliyalashtirish riskini kuchaytiradi. Banklar uchun muddatli va jamg'arma depozitlarini ko'paytirish, obligatsiyalar va boshqa uzoq muddatli milliy valyutadagi instrumentlardan foydalanish resurs bazasining muddat profilini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

Olingan natijalar O'zbekiston bank tizimida kredit qo'yilmalarining jadal o'sishi resurs bazasining transformatsiyasi bilan bir vaqtda kechayotganini ko'rsatadi. Bir tomondan, 2018–2022-yillarda depozitlarning mutlaq hajmi va ulushining oshishi banklarning ichki moliyalashtirish bazasi kengayganidan dalolat beradi. Ikkinchi tomondan, olingan kreditlar va lizinglar, tashqi qarzlarni hamda norezident banklar mablag'larining sezilarli hajmi kredit ekspansiyasining tashqi va institutsional manbalarga bog'liqligini saqlab qolmoqda.

Mazkur holatni faqat salbiy yoki ijobiy tendensiya sifatida baholash to'liq bo'lmaydi. Tashqi resurslar banklarga uzoq muddatli va yirik loyihalarni moliyalashtirish imkonini beradi, xalqaro moliya institutlari bilan aloqalarni kengaytiradi va resurslar bazasini diversifikatsiyalashi mumkin. Biroq valyuta kursi, global foiz stavkalari va qayta moliyalashtirish shartlari o'zgarganda tashqi qarzlarni bankning risk profiliga qo'shimcha bosim yaratadi. Shu sababli tashqi moliyalashtirishning maqbul ulushi bankning valyuta daromadlari, kapital buferlari va xedjirlash imkoniyatlari bilan uyg'un holda boshqarilishi zarur.

Davlat va O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi resurslari hisobidan kreditlash iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini moliyalashtirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Biroq bunday manbalardan muntazam va keng ko'lamda foydalanish bankning bozor tamoyillariga asoslangan resurs jalb qilish mexanizmlarini

rivojlantirish rag'batlarini pasaytirishi, markazlashgan mablag'larga talabni oshirishi va fiskal sharoitlarga bog'liqlikni kuchaytirishi ehtimoli mavjud. Shuning uchun uzoq muddatli istiqbolda kreditlashning barqaror modeli ichki jamg'armalarni safarbar etish va bozor instrumentlari orqali resurs jalb qilishga ko'proq tayanishi lozim.

Tadqiqot natijalari kredit siyosatini depozit siyosati va aktiv-passivlarni boshqarish tizimidan ajratmaslik zarurligini ko'rsatadi. Kredit portfelining maqsadli o'sish sur'ati bankning barqaror resurslar o'sishi, kapital imkoniyatlari va likvidlik buferlari bilan muvofiqlashtirilishi kerak. Bunday yondashuv kredit hajmi ortishi natijasida yuzaga keladigan likvidlik va qayta moliyalashtirish xatarlarini oldindan boshqarish imkonini beradi.

MUHOKAMA

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, tijorat banklari kredit qo'yilmalarini moliyalashtirish manbalarini optimallashtirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarni taklif etish mumkin:

depozit bazasining barqaror qismini kengaytirish maqsadida aholi va korxonalar uchun uzoq muddatli jamg'arma hamda muddatli depozit mahsulotlarini segmentlar kesimida rivojlantirish;

kredit portfelining rejalashtirilgan o'sish sur'atlarini barqaror majburiyatlar bazasining o'sish sur'atlari bilan muvofiqlashtiruvchi ichki limitlar va indikatorlarni kuchaytirish;

xorijiy valyutadagi kreditlar ulushini qarz oluvchining valyuta tushumlari va valyuta riskini qoplash imkoniyatlari bilan bog'lash, valyuta nomuvofiqligini cheklovchi risk-me'yorlarni takomillashtirish;

tashqi qarzlarni jalb qilishda faqat resurs narxini emas, balki valyuta, muddat, qayta moliyalashtirish va foiz risklarini kompleks baholovchi «to'liq qiymat» yondashuvini qo'llash;

uzoq muddatli kreditlashni moliyalashtirish uchun milliy valyutadagi uzoq muddatli instrumentlar, jumladan bank obligatsiyalari va boshqa bozor mexanizmlaridan foydalanishni kengaytirish;

aktiv va passivlarni boshqarish qo'mitasi (ALCO) doirasida depozit konsentratsiyasi, valyuta nomuvofiqligi, muddatlar tafovuti va tashqi qarzlarning qayta moliyalashtirish profilini muntazam stress-testlardan o'tkazish;

kredit resurslari tarkibining bank rentabelligiga ta'sirini baholashda foiz marjasi bilan bir qatorda likvidlik qiymati va riskka tuzatilgan daromadlilik ko'rsatkichlarini qo'llash.

XULOSA

Tadqiqot natijalari tijorat banklari kredit qo'yilmalarining barqaror o'sishi ularni moliyalashtiruvchi resurslar bazasining sifati va tarkibi bilan bevosita bog'liq ekanini tasdiqlaydi. 2023-yilda kredit qo'yilmalarining 21,6 foizga o'sib, 452,1 trln so'mga yetishi bank sektorining iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi rolini kuchaytirgan. Biroq kredit ekspansiyasi resurs bazasining yetarli diversifikatsiyasi, valyuta risklarini boshqarish va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarining mavjudligi bilan qo'llab-

quvvatlanishi lozim.

2018–2022-yillarda depozitlar hajmi qariyb 3,1 baravar oshib, ularning majburiyatlardagi ulushi 37,3 foizdan 45,4 foizgacha ko‘tarilgan. Ayni paytda olingan kreditlar va lizinglar ulushining 55,6 foizdan 39,1 foizgacha pasayishi ichki resurslar rolining oshganini ko‘rsatadi. Shunga qaramasdan, norezident banklar mablag‘larining tez sur‘atlarda o‘sishi tashqi moliyalashtirish bilan bog‘liq valyuta va qayta moliyalashtirish xatarlarini nazorat qilish zaruratini kuchaytiradi.

Kredit portfelida xorijiy valyutadagi kreditlar ulushining 2017-yildagi 62,3 foizdan 2022-yilda 48,1 foizgacha qisqarishi ijobiy strukturaviy siljishdir. Biroq bu ko‘rsatkichning hanzu yuqori darajada qolayotgani banklarning valyuta xatarlariga sezgirligini saqlab qoladi. Shu bois kreditlar valyutasi qarz oluvchining pul oqimlari valyutasi bilan muvofiqlashtirilishi hamda milliy valyutadagi uzoq muddatli resurslar bazasi bosqichma-bosqich kengaytirilishi lozim.

Umuman olganda, tijorat banklari kredit qo‘yilmalarini optimallashtirishning asosiy yo‘nalishi kredit hajmini mexanik oshirish emas, balki kredit o‘shini depozit bazasi, kapital, likvidlik va bozor moliyalashtirish instrumentlarining barqaror o‘shishi bilan uyg‘unlashtirishdan iborat. Ushbu yondashuv bank tizimining tashqi shoklarga chidamliligini oshirish, kredit operatsiyalari rentabelligini barqarorlashtirish va real sektorni uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik sharhi. Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosatining 2022-yil va 2023–2024-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulletenlar: 2018, 2019, 2020, 2021 va 2022-yillar; ‘Kredit tashkilotlari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari’ ma’lumotlari.
4. Rasulov T.S., Ziyodilloev X.R. Tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirish yo‘nalishlari. Monografiya. Toshkent, 2024.
5. Otamurodov H.H. Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishni takomillashtirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2019.
6. Mohammad J. M. Optimal Bank Loan Portfolio in Iranian’s Banks. Research Journal of Finance and Accounting, Vol. 4, No. 2, 2013. ISSN 2222-1697.
7. Ziyodilloev X.R. Tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2024.